

determining the main criteria indicators of the quality of education in the educational institution;  
preparation of analytical reports and reports on the quality of education in the educational institution;  
stimulation of innovative processes in the educational institution to ensure the quality of education and continuous improvement;  
determining the directions of development of the educational institution, and improving the qualifications of pedagogical staff.

Based on the above, we note the following conclusions:

- management of the quality of education in an educational institution - this is planning, that is, setting educational goals and ways to achieve them; organizing the educational process and arousing the interest of its participants in quality work; system for identifying deviations from goals and monitoring changes in development (monitoring); are the processes of managing and analyzing results;
- quality management of education means the implementation of all functions of management to achieve the specified indicators, to achieve a guaranteed result, both in a narrow and broad sense.

#### **References:**

1. Yoidoshev J. Education is on the way to renewal. - T. "Teacher". 2000
2. Yoidoshev J., Usmanov S. Educational management. - T.: Science and technology" publication, 2006.
3. Yoidoshev J., Poiatov Sh., Organization of methodical service in education based on innovative technologies. - T. "Modern education" 2011

### **OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA XORIY TAJRIBASI: KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT**

**Muxiddinova Nilufar Bazodirovna**

**O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kredit modul tizimining jahon amaliyotida keng qo'llanilishi, respublikamiz ta'lim jarayonida tutgan o'rni va talabalarda kompetentlikni rivojlantirish. Xorij tajribasini o'rganish asosida sifatli kadrlar tayyorlash, hamda ta'lim sifatini oshirish. Eng keng tarqalgan kredit tizimi Amerika Qo'shma Shtatlari (USCS), Britaniya to'plash va uzatish tizimi kreditlar (CATS), Yevropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS) va Osiyo Tinch okeani universiteti kredit o'tkazmalari tizimi (UCTS) ni o'rganish.

**Kalit so'zlar:** Kredit tizimi, Bolonya deklaratsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari (USCS), Yevropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS), Britaniya to'plash va uzatish tizimi kreditlar (CATS), kompetentsiya, amaliy kompetentsiya, kasbiy malaka.

## ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ВНЕДРЕНИЯ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

**Аннотация:** В данной статье при широком использовании кредитной системы при реализации образовательных программ в мировой практике кредитная система выступает мерой общей трудоемкости и качества образования. Наиболее распространенными кредитными системами являются Система перевода кредитов США (USCS), Британская система сбора и перевода кредитов (CATS), Европейская система перевода кредитов (CATS), Европейская система перевода кредитов (ECTS), а также информация о развитии практической компетентности будущих учителей.

**Ключевые слова:** Кредитная система, Болонская декларация Соединенных Штатов Америки (USCS), Европейская система перевода кредитов (ECTS), Британская система сбора и перевода кредитов (CATS), компетентность, практическая компетентность, профессиональная квалификация.

## THEORY AND PRACTICE IN THE IMPLEMENTATION OF THE FOREIGN EXPERIENCE CREDIT-MODULE SYSTEM IN A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

**Abstract:** In this article, with the widespread use of the credit system in the implementation of educational programs in world practice, the credit system acts as a measure of the overall labor intensity and quality of education. The most common credit systems are the United States Credit Transfer System (USCS), the British Credit Collection and Transfer System (CATS), the European Credit Transfer System (ECTS), and information is also given on the development of practical competence future teachers.

**Keywords:** Credit System, Bologna Declaration of the United States of America (USCS), European Credit Transfer System (ECTS), British Credit Collection and Transfer System (CATS), competence, practical competence, professional qualification.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida kredit modul tizimini joriy etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu borada Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 824-sonli qarori bilan olit talim muassasalarini bosqichma bosqich kredit modul tizimiga o'tkazish vazifalari belgilab berilgan. Bunga ko'ra Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibi ko'rsatib o'tilgan.

ECTS kredit-modul dastlab Erasmus dasturi 1988-1995 yillar doirasida ishlab chiqilgan va Evropa Kengashining barcha mamlakatlaridagi 145 ta universitetda joriy etilib, kimyo, tarix, texnik mexanika va tibbiyot yo'nalishlarini qamrab olgan. 1995 yilning kuzida Yevropa Komissiyasi fanlar doirasini kengaytirish va oliy ta'limning universitetdan tashqari sektorini tizimga jalb qilishni taklif qiladi va natijada 1996-1997 yillarda 348 ta fakultetga ega 38 ta yangi universitet va 206 ta fakultetga ega 36 ta universitet ECTS kredit-moduldan foydalana boshlagan. Tajriba natijalariga ko'ra, ECTS kredit-modul tizimi shaffof o'quv dasturlarini yaratish va akademik e'tirofga ko'maklashish uchun samarali vosita ekanligini isbotladi va natijada 1995 yilda ECTS kredit-modul tizimi oliy ta'limning alohida komponenti - Erasmus - Sokrat dasturi sifatida kiritilgan. 1997-1998 yillarda 772 ta universitetda ECTS tizimi joriy etilgan bo'lib, yana 290 ta universitet ECTS kredit-modul tizimini joriy qilish uchun grant so'ragan.

ECTS tizimida 3 ta muhim tushuncha mavjud:

- ECTS krediti;
- Erishilgan bilim – (Learning outcomes) shaxsning o'rganilayotgan fan bo'yicha erishgan bilimlari, uni amalda qo'llay olishi, fanning mohiyatini tushuna olishi, mushohada yurita olish darajasi va boshqalar;
- Ish hajmi va turi – (Workload) ma'ruza, amaliyot, mustaqil ish, laboratoriya. Xalqaro tajribada ECTS tizimida bir o'quv yilida jami 60 kredit yig'ish mumkin. Shundan 3 yillik bakavr darajasini olishda 180 kredit, 2 yillik magistratura darajasini olishda 120 kredit olish ko'zda tutiladi.

Yevropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS) Boloniyaning asosidir. Kredit modul tizimining rivojlanishi Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi bilan boshlangan bo'lib, Yevropa mamlakatlarida bu jarayon 1999 yilda oliy maktablarda qo'llanila boshlangan.

Bolonya deklaratsiyasi — bu Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirishdir. U tushunish oson bo'lgan va o'xshash oliy ta'lim darajalar tizimini yaratishni, ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishni, ta'lim sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, ta'lim oluvchilarda intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy hamda texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda joriy etilgan. O'sha davrda mamlakat oliy ta'lim muassasalari qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlari asosida faoliyat yuritgan. Kredit modul tizimi ta'lim jarayonining asosiy vositasi sifatida yaratilgan. Ushbu modul talaba tomonidan olingan ta'limning umumiy o'lchovini tanlashga imkon beradi. Kredit modul tizimi talabaning akademik harakatchanligini aniqlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. 1869 yilga kelib Garvard Universitetiga o'sha davrning eng ilg'or fikrlovchilaridan bo'lgan Charles Elliot prezident etib saylanadi. ECTS kredit-modul tizimi o'zagida ham AQSH akademik kredit tizimi tamoyillari yotadi.

Amerika moliyalash tizimining eng muhim xususiyati kreditlar (USCS) – o'zlashtirishga sarflangan soatlarini, har qanday ta'lim dasturining fanlarini, kredit soatlarini aniqlaydi.

1989 yilda yangi kredit-modul tizimi qoidalarini ishlab chiqadi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Yevropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS) kredit tizimi o'lchash usulini ishlab chiqishga qaratilgan va Yevropa universiteti ta'lim natijalarini taqqoslaydi. Ushbu tizimni ishlab chiqish va joriy etishdan maqsad ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishdir. Hozirda ECTS kredit-modul tizimi Yevropaning 48 davlati oliy ta'lim muassasalari tomonidan turli darajada ta'limni boshqarish usuli sifatida foydalanib kelinmoqda.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning asosiy maqsadi ham jamiyatga munosib bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishdir. Har bir ta'lim muassasasi esa bugun o'ziga xos bo'lishga, o'z modelini, qaysidir ma'noda o'z taraqqiyot yo'lini ixtiro qilishga intiladi. Bunday o'zgarishlarga mos mutaxassislarni tayyorlash esa ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlash vazifasini keltirib chiqaradi.

Kompetentsiya (lotincha *competo*-dan *competo* - men erishaman, bo'ysunaman, yaqinlashaman) mutaxassisning ma'lum bir toifadagi kasbiy vazifalarni hal qilishdagi shaxsiy qobiliyatidir. Kompetentsiya – bu ta'lim orqali olingan bilimlarga, tajribalarga, qadryatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyat. [6]

V. A. Slastenin amaliy kompetentsiyani shaxsning hozirgi kunda jamiyatda qabul qilingan ta'lim normalari va standartlariga muvofiq pedagogik funksiyalarni kasbiy bajarishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradi. O'qituvchining kasbiy malakasi uning o'qituvchilik faoloyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi[6].

Nazariy bilimlar bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligini shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi va ularning pedagogik mahoratini shakllantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'qituvchilarning kasbiy ahamiyatli fazilatlarini uzoq vaqt davomida olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kasbiy kompetentsiyaning mazmunini belgilab bergan, uni shakllantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarini aniqlagan. I.D. Lapteva kompetentsiyani asosiy va maxsusga ajratadi. Asosiy vakolatlar tez o'zgaruvchan zamonaviy dunyoda shaxsning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'lib, asosiylari ma'lum bir mavzu yoki zamonaviy kasb sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi[5. C 226-230].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Kredit-modul tizimi faqat talabalarni zarur o'quv hujjatlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib qolmasdan, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi talabaga oliy ta'lim muassasasi, yo'nalishlar, mutaxassisliklar, o'quv jarayonining tashkil qilinishi va bilimlarni nazorat qilish,

mustaqil o'qishga tayyorlanish, dam olish va har tomonlama rivojlanish sharoitlari haqida to'liq axborot bilan ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной парадигме // Ж. Педагогика. – М.: 2003. - № 10. – С.8.
4. Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции / А.А. Вербицкий, О.Г. Ларионова М.: Логос, 2009. – 336 с.
5. Татарченкова С.С., Телешов С.В Формирование ключевых компетентностей учащихся через проектную деятельность: Учебно-методическое пособие //— СПб.: КАРО, 2008. С. 9.
6. Профессиональная педагогика: категории, понятия, дефиниции [Текст]: сб. науч. тр. Вып. 4 / Федер. агентство по образованию; Рос. гос. проф.- пед. ун-т ; Рос. акад. образования, Ур. отд-ние , 2006. - 571 с.

### **OLIV TA'LIM MUASSASASIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TALABALARNI O'QITISH SHART-SHAROITLARI**

**Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna**  
**O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida talabalar kredit-modul tizimi asosida tahsil olmoqdalar. Bu dastur orqali raqamli texnologiyalardan va zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanilgan holda yoshlarga raqamli savodxonligini oshirish ko'zda tutilgan. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida talabalarni o'qitish afzalliklari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul tizimi, kredit, akademik mobillik, akademik qarzdorlik, GPA.

### **УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ В ВЫШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ**

**Аннотация:** Сегодня во многих высших учебных заведениях студенты обучаются по кредитно-модульной системе. Благодаря этой программе